

ADOLAT MUAMMOSINING FALSAFIY TAFAKKURDAGI O'RNI VA ROLI

Sadullayeva Shaxnoza Bahodirovna

SamDChTI Gumanitar fanlar va

Axborot texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada adolat muammosining falsafiy tafakkurdagi o'rni va roli haqida so'z yuritilgan. Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, mavhumlashtirib, o'zaro bog'liqlikda va rivojlanishda o'rganib, ularning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishdir. Falsafiy tafakkur insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: falsafiy tafakkur, adolat, falsafa, falsafiy ta'limot, tarbiya, munosabat, taraqqiyot, tafakkur.

Abstract. This article talks about the place and role of the problem of justice in philosophical thinking. Philosophical thinking is to generalize and abstract things and events in the world in thought, to study their interrelationship and development and to know their essence more deeply and fully. Philosophical thinking begins with a person's self-awareness and develops based on the generalization of his knowledge about the world.

Key words: philosophical thinking, justice, philosophy, philosophical teaching, education, attitude, development, thinking.

Абстракт. В данной статье говорится о месте и роли проблемы справедливости в философском мышлении. Философское мышление состоит в том, чтобы обобщать и абстрагировать в мышлении вещи и явления мира, изучать их взаимосвязь и развитие, глубже и полнее познавать их сущность. Философское мышление начинается с самосознания человека и развивается на основе обобщения его знаний о мире.

Ключевые слова: философское мышление, справедливость, философия, философское учение, воспитание, отношение, развитие, мышление.

XXI asrga kelib jahon xalqlarining hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz", "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" nomli nutq va ma'ruzalar to'plamidan iborat bo'lgan kitoblarida yangi sharoitda islohotlarni izchillik bilan amalga oshirishning tarixiy zaruriyat ekanligi, uni amalga oshirishning yangicha shakl, usul va vositalari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan.

Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to'plangan hikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta'limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni o'rtaga tashlaganlar.

Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bu g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Insoniyat azal azaldan olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, degan savollarga javob izlaydi. Umrning mazmuni nimadan iborat, avlodlar ortidan avlodlar kelib ketaverishida qanday ma'no bor kabi masalalar barchani o'ylantiradi. Falsafa ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. U nihoyatda qadimiy fan. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar.

Inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Falsafa –insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ilm va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Inson bor ekan, olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, umrning mazmuni nimadan iborat kabi masalalar barchani o'ylantiradi. Falsafa ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

Adolat – ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiy siyosiy ongida katta rol o'ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o'zida aks ettiradi. Siyosiy xatti-harakatlar, huquq va burch me'yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e'tirof qilish va hokazoga mazkur tushuncha orqali baho beriladi. Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi.

Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g'amini yeyishni anglatadi. Rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o'z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o'z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat etadi, jamiyat a'zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda jamiyatda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyasini ta'minlash davlat siyosatining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Binobarin, mamlakatda o'tkazilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush sharoitlarini vujudga keltirishdir.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan, jahon tan olgan besh tamoyilning muhim qismi aholini kuchli ijtimoiy himoyalash ekanligi ham shu bilan bog'liqdir.

Falsafa insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlaridan biridir. Falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash inson tabiatiga xos, demak, uning o'zi kabi qadimiydir. U olam va

uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida baxs yuritadigan fandır.

Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, mavhumlashtirib, o'zaro bog'liqlikda va rivojlanishda o'rganib, ularning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishdir. Falsafa fanlar ichidagi fandır, tafakkur madaniyatidir.

Falsafiy tafakkur insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi, uning olam haqidagi bilimlarini umumlashtirish asosida rivojlanib boradi. Vatandoshimiz, sharqda mashhur bo'lgan faylasuf Aziziddin Nasafiy shunday degan: «Ey darvesh, ulug' olamning avvalu ohiri, zohiru botini, mohiyat va shakllarini anglab yetish uchun o'zingning mohiyatingni, zohir va botiningni anglab yetkin. Bundan boshqa yo'l yo'q.

Inson bilishining obyektı bo'lgan olam cheksizligi sababli, bu savollarga javob berish imkoniyati ham cheksizdir. Bu savollarga javob izlash bizning kunlarimizgacha davom etib kelmoqda, bundan keyin ham davom etaveradi.

Dunyoni anglash, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etish, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g'oyasi, maslak-muddaolarini bilish, uchun ham falsafa fanini keng va atroflicha o'rganish darkor. Bir so'z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish – davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muholif bilan bahsga kirishish uchun uning qarashlari va g'oyasi, falsafasini ko'proq bilishimiz, kerak bo'lsa, uning o'zidan ham puxtarok egallashimiz lozim.

Falsafiy bilimlar – olamni sezish va idrok etish. Masalan, badiiy idrok etish shakllariga nisbatan yuqori makondagi bilimlardandir. Chunonchi, olamni bilish va tushunish kabi, «olam-odam» munosabatlari falsafiy dunyoqarashda esa o'ziga hos ravishda hal etiladi.

Boshqacha qilib aytsak, falsafa fani olam va odam o'zaro aloqadorlikda, yakka holda va umumbashariyat hoida tushunishga intilishi tufayli shakllangan. Xullas, falsafa fani inson va olam munosabatlarini aqliy, nazariy va mantiqiy asoslarda, dalillar, tamoyillar, o'y-mushohadali qarashlar asosida o'rganadi va odamga hayot ma'nosini to'g'ri idrok etishga imkon tug'diradi. Falsafiy qarashlarni har doim ham keng tarqalgan fikrlarga mos kelishi yoki unga zid kelishi shart emas.

Aql-idrok va bir lahzali amaliy harakatni ko'zlovchi sog'lom fikr mavjud bo'lgan hayot muammosini payqamay qolishi ham mumkin. Falsafiy tafakkur albatta ana shu muammoni aniqlaydi va uni hal etish yo'lini izlaydi. To'g'ri, falsafiy tafakkur amaliy harakatning o'rnini bosmaydi. Ammo, u muayyan amaliy harakat zaruratini, maqsadini yuzaga chiqarishning eng samarali, unumli yo'llarini topib bera oladi.

Birinchiidan, «Olam – odam» munosabatlari tizimi ko'p qirrali va rang-barang muammolarni o'z ichiga oladi. Obyektivlik va subyektivlik moddiylik va ma'naviylik, borliq va tafakkur, jism va ruh, ma'naviyat va ruhiyat, ular o'rtasidagi dialektik aloqadorlik ham falsafiy tadqiqot sohalariga kiradi.

Ikkinchidan, «Olam va odam» munosabatlari tizimi mehnat va buyum, ma'rifiy, metodologik, ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, falsafa fani olam va inson mohiyatini barcha rang-barangligi, o'zaro aloqalari va munosabatlari bilan to'laroq tushunishga yordam beradi. Demak, falsafa fan sifatida «olam va odam» tizimi rivojiga asos bo'luvchi eng umumiy qonuniyatlarini tadqiq etadi.

To'rtinchidan, falsafa ma'naviy olamni o'zgartirish sifatida nazariy bilimdonlarning tarixan birinchi ilmiy shaklidir. Falsafa yordamlarning amaliy faoliyatini va ilm-fan ma'lumotlarini nazariy umumlashtirib, yangi sifatidagi umumiy qonuniyalarini ishlab chiqadi.

Xususan, ilmiy bilimlarning barchasi falsafa fani xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Ekologiya va sinergetika kabi umumiy ilmiy fanlar falsafaga yaqin turadi va uning rivojiga ta'sir kursatadi. Ammo, shunisi ham borki, bu fanlarning o'zi falsafaga yaqin turadi va uning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo, shunisi ham borki, bu fanlarning o'zi falsafaning hozirgi fanlarni umumlashtirishdan kelib chiqqan. Ilmiy nazariyalar har qanday yirik fundamental va umumlashgan bo'lsa, u shunchalik katta muammolarni hal etishi mumkin. Falsafiy qarashlar esa ana shu muammolarni umumbashariy manfaatlar nuqtai nazaridan hal etish yo'llarini ko'rsatadi.

Falsafaning asosiy xususiyati-olamni va odamni alohida o'rganish emas, balki olam va inson o'rtasidagi munosabatlarning eng muhim qonuniyatlarini o'rganishdir. Falsafaning o'ziga xosligi va jamiyatdagi o'rnini ham shundadir.

Falsafa fani olam va inson o'rtasidagi rang-barang, o'zaro aloqalar va munosabatlar, o'zaro faoliyatlarni o'rganish asosida mazmunan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarining umuminsoniyat tajribalariga tayanib tadqiq etadi, o'rganadi;

- borliq va olam haqidagi bilimlar hazinasidan kelib chiqib, odam olamni qanday bilishini, voqelikka munosabatini, olamda o'z o'rnini, vazifasini qanday tushunish kerakligini, hayot ma'nosi va maqsad-muddaosini ilmiy anglashni tushuntiradi;

- olamni hissiy bilish yo'li bilan erishib bo'lmaydigan tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar-muhim tushunchalarning ma'nolari va mohiyatini anglab olishga imkon tug'diradi va shu tufayli falsafa tili ilmiy, nazariy umumlashi tasnifida bo'ladi.

- «olam-odam» umumiy formulasi asosida falsafa fani barcha fanlarga dahldor ilmiy muammolar yechimini to'g'ri topishga yordam beradi;

- falsafa zamonaviy fanlarning yutuqlariga suyanadi, nazariy tafakkur va madaniyat kategoriyalari, muhim tushunchalarini aniqlaydi;

- olamning ilmiy manzarasini aks ettiradi;

- falsafa fani jamiyat hayotidagi mangu muammolarni va yangi tug'ilgan muammolarini qanday hal etish yo'llarini izlaydi va tushuntiradi.

Falsafa o'z tadqiqot mavzusi sifatida insonning mohiyati, jamiyatdagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarning asoslari va sabablari, borliq, materiya, tabiat taraqqiyotining eng umumiy muammolarini o'rganadi.

O'zbekiston hukumati ana shu besh tamoyil asosida o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur choralar ko'rdi. Bu choralar odamlarning turmush darajasini keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi hamda Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo'ldi.

Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqea hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi.

Ayniqsa, inson tafakkurining o'zgarishi dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g'oyalariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib turibdi. Zero, inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o'zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin.

Istiqlolga erishganimizdan buyon tarixan qisqa davr o'tgan bo'lsa-da, mustaqil taraqqiyot mamlakatdagi ulkan imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishning yagona va muhim omili ekani o'zining to'liq isbotini topdi. Zero, faqat mustaqillikka har bir xalqqa o'z falsafasini erkin rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Mustaqillik yillarida falsafaning yangilanishi uchun zarur asoslar shakllandi. Eski, sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot yangi mazmundagi falsafani shakllantirish uchun asos bo'la olmas edi.

Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Kelajak insonni tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma'naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog'imiz lozim. Bu masalani milliy va umuminsoniy falsafiy g'oyalarni, nazariyalarni ishlab chiqmasdan hal qilish mumkin emasligi esa tobora aniq bo'lib bormoqda.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar orqali ularning ma'naviy dunyosini yuksaltirishga, kitobxonlik hamda mutolaa madaniyatini shakllantirish ularni vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbir va tanlovlar tashkil etish, yangi O'zbekistonga yangicha dunyoqarashli insonlar orqali oliy maqsadimizga erishishimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Буёк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.– Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017
2. О'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent. «O'zbekiston», 1992.
3. Н.А.Шермухаммедова “Фалсафа.”2009 й